



Regarding the study of German translations of Uzbek novels

Umida YUSUPOVA¹

Namangan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2025
Received in revised form
15 May 2025
Accepted 25 June 2025
Available online
15 July 2025

Keywords:

Genre,
literary scholars,
translation,
literary-aesthetics,
renaissance period,
artistic work,
jadid writers,
translation studies,
image,
portrait.

ABSTRACT

As we know, Jadid literature marked a significant turning point in the development of Uzbek literature, not only in terms of content but also in form and genre. The works of this period's authors served as an ideological, stylistic, and genre-based foundation for Uzbek literature's transition into a new era. In this article, we have examined how the formation and development of the novel genre in the process of literary evolution is one of the issues deserving special attention.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss4-pp67-73>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbek romanlarining nemischa tarjimalari tadqiqi xususida

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

janr,
adabiyotshunoslar,
tarjima,
adabiy-estetik,
uyg'onish davri,
badiiy asar,
jadid adiblari,
tarjimashunoslik,
obraz,
portret.

Bizga ma'lumki, jadid adabiyoti nafaqat mazmun, balki shakl va janr jihatidan ham o'zbek adabiyotining taraqqiyotida muhim burilish yasadi. Bu davr ijodkorlarining faoliyati o'zbek adabiyotining yangi davrga o'tishida g'oyaviy, uslubiy va janriy asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu maqolada adabiyot taraqqiyoti jarayonida roman janrining shakllanishi va rivojlanishi alohida e'tiborga molik masalalardan biri ekanligini ko'rib chiqdik.

¹ Senior Lecturer, Namangan State Institute of Foreign Languages. E-mail: umidayusupova222@gmail.com

Об исследовании немецких переводов узбекских романов

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

жанр,
литературоведы,
перевод,
литературно-эстетика,
эпоха Возрождения,
художественное
произведение,
джадидские писатели,
переводоведение,
образ,
портрет.

Как нам известно, джадидская литература стала поворотным моментом в развитии узбекской литературы не только по содержанию, но и по форме и жанру. Деятельность творцов этого периода послужила идейной, стилистической и жанровой основой для перехода узбекской литературы в новую эпоху. В данной статье мы рассмотрели вопрос формирования и развития жанра романа в процессе литературного развития как одну из тем, заслуживающих особого внимания.

KIRISH

O'zbek romanchiligining shakllanishida Abdulla Qodiriy ijodi alohida o'rin tutadi. Uning "O'tkan kunlar" asari adabiyotshunoslar tomonidan o'zbek adabiyotining ilk to'laqonli romani sifatida e'tirof etiladi. Biroq bu asardan avvalroq, ya'ni 1915-yilda X.X.Niyoziy tomonidan yozilgan va muallif tomonidan "Yangi saodat yoxud milliy ro'mon" deb nomlangan asar, shuningdek, Mirmuhsin qalamiga mansub "Farzandsiz Ochildiboy" kabi asarlar ham mavjud bo'lgan. Ushbu asarlar mualliflari o'z ijod mahsullarini roman deb atagan bo'lsalar-da, o'sha davrdayoq ko'plab tanqidchilar bu asarlarning janr talablariga to'liq javob bermasligini ta'kidlaganlar [1]. Adabiy tanqid vakillari, xususan, ularning kompozitsion yaxlitlik, xarakterlar chuqur talqini, voqelikni realizm asosida tahlil qilish kabi roman janriga xos asosiy mezonlarga to'la mos kelmasligini ta'kidlab o'tganlar. Jumladan, milliy uyg'onish davri tanqidchilaridan biri bo'lgan M.Solihov o'zining adabiy-estetik qarashlarida mazkur masalaga alohida e'tibor qaratadi. U o'z mulohazalarida quyidagicha fikr bildiradi: "Mehrobdan chayon" yolg'iz Julqunboyning ikkinchi asari emas, balki o'zbek yangi adabiyoti uchun ham ikkinchi roman edi" [2]. Bu fikr orqali muallif asarga janr nuqtai-nazaridan emas, balki o'zbek romanchiligining taraqqiyoti doirasida yondashib, uning tarixiy ahamiyatini belgilab beradi. Demak, "Mehrobdan chayon" romani ilk o'zbek romaniga ergashgan holda, bu janrni mustahkamlashga xizmat qilgan ikkinchi muhim adabiy namunadir. Shunday qilib, o'zbek romanchilik maktabining shakllanishida dastlabki tajribaviy asarlar, garchi janr talablari nuqtai-nazaridan to'la kamolotga yetmagan bo'lsa-da, keyingi bosqichda yuzaga kelgan yirik romanlar uchun muhim tayanch bo'lib xizmat qilgan. Ushbu jarayonda mahalliy va xorijiy adabiy tajribalarning sintez qilinishi, yangi uslub va janrlarning muvaffaqiyatli qo'llanilishi orqali o'zbek adabiyoti sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Yuqorida tilga olingan badiiy asarlar roman yaratish yo'lidagi dastlabki urinishlar sifatida baholanadi. Shu jihatdan olib qaralganda, jadid adabiyoti vakillari o'zbek romanchiligiga asos solgan mualliflar sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan keyin yaratilgan "Mehrobdan chayon", tugallanmay qolgan "Obid ketmon" hamda Cho'lpon qalamiga mansub "Kecha va kunduz" romanlari mazkur jarayonning muhim bosqichlari sifatida alohida e'tiborga loyiqdir.

Mazkur romanlar o'ziga xos badiiy belgilar bilan ajralib turadi. Jadid adiblari tomonidan yaratilgan ushbu asarlar o'zbek mumtoz adabiyotining ko'p asrlik an'analari bilan chuqur sug'orilgan bo'lib, bu jihat ularning badiiy tafakkurida ham, roman janrini o'zlashtirishda ham yaqqol namoyon bo'lgan. Jumladan, obrazlar tizimini shakllantirishda hamda siymolar o'rtasidagi munosabatlarni tasvirlashda mumtoz adabiyotda keng qo'llanilgan uslubiy vositalardan foydalanilgan. Xususan, obrazlar o'rtasida an'anaviy uchburchak shaklidagi oshiq-ma'shuq-raqib (masalan: Otabek–Kumush–Homid; Anvar–Ra'no–Musulmonqul) kabi munosabatlar qurilgan. Bundan tashqari, ayol obrazlari portretini chizishda ham mumtoz adabiyotdagi go'zallik mezonlari va estetik qarashlar asos bo'lib xizmat qilgan. Masalan, "O'tkan kunlar" romanidagi Kumush, "Mehrobdan chayon"dagi Ra'no, "Kecha va kunduz"dagi Zebi obrazlarida bu an'anaviy yondashuv aniq ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, Kumush obrazining tasvirida bu jihat yanada ravshan ifodalangan: u xastalanib qolgan bo'lsa-da, muallif uni hamon ma'naviy va jismoniy go'zallik timsoli sifatida tasvirilaydi. Bu esa, jadid romanchiligining ilk namunalarida o'zbek badiiy tafakkuri va mumtoz estetik qarashlar uyg'unligini yaqqol namoyon etadi.

Ilmda ta'kidlanishicha, o'sha davrda yaratilgan dastlabki romanlarda ijobiy va salbiy qahramonlar aniq belgilangan ma'naviy mezonlar asosida ifodalanadi. Bunday asarlarda ijobiy obrazlar mutlaq ijobiylik timsoli sifatida talqin qilinadi. Masalan, Otabek, Kumush, Anvar, Ra'no, Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor, Qurbonoy va Zebi kabi qahramonlar fidoyilik, mehr-oqibat, halollik va vatanparvarlik kabi yuksak fazilatlar egasi sifatida tasvirlanadi. Ularning xarakterida ichki ziddiyatlar, ruhiy inqirozlar yoki shaxsiy evolyutsiya kamdan-kam ko'zga tashlanadi. Shu bilan bir qatorda, Homid, qora kampir, Abdurahmon, Shahodat muftiy kabi salbiy obrazlar esa to'liq manfiylik belgilariga ega bo'lib, ular jamiyatdagi yovuz kuchlar, eskilik qoldiqlari va ma'naviy tanazzulning timsoli sifatida jonlantirilgan.

Mazkur yondashuv, ya'ni obrazlarni mutlaq ijobiy yoki mutlaq salbiy tarzda berish usuli o'zbek adabiyotida ilgari ham – xususan, mumtoz adabiyotda – keng qo'llanilgan edi. Keyingi yillarda yaratilgan o'zbek romanlarida bu an'ana davom ettirilib, obrazlarning psixologik chuqurligi uncha rivojlanmagan, ularning ichki ruhiy kechinmalari va xarakter taraqqiyoti cheklangan holda yoritilgan. Bu holatni sho'ro davri romanlarida ham kuzatish mumkin, garchi bu davrda ayrim qahramonlarda cheklangan darajada ruhiy kechinmalar va xarakter o'zgarishlari tasvirlangan bo'lsa-da, baribir inson tabiatining murakkabligi chuqur ochib berilmagan.

Ammo adabiyotshunoslar tomonidan e'tirof etilishicha, o'zbek romanida inson psixologiyasiga chuqur kirib borish, obrazlarning ruhiy holatini markazga olib chiqish kabi muhim badiiy uslub ilk bor Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida kuzatiladi. Bu asarda voqealar rivoji ikkinchi planga tushib, asar markaziga insonning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari, shaxsiy qarorlar va ularning oqibatidagi o'zgarishlar olib chiqiladi. Asar qahramonlari, xususan, Anvar va Ra'no, ruhiy inqiroz, ichki kurash, ikkiyuzlamalik va hayotiy sinovlar qarshisida qanday shakllanib borayotgani batafsil ko'rsatiladi. Mazkur jihat o'zbek romanchiligida yangilik bo'lib, insonni o'zgarimas emas, balki doimiy evrilishda bo'lgan murakkab mavjudot sifatida ko'rsatish tendensiyasining boshlanishi sifatida qadrlanadi.

Bu borada adabiyotshunos D.Quronovning quyidagi fikri diqqatga sazovordir: *"Romanchiligimizning ilk cho'qqisi – "O'tkan kunlar"dan farq qilaroq, "Kecha"da voqealar silsilasi emas, inson xarakteri, uning ruhiyatida kechayotgan jarayonlar markaziy o'rin*

tutadi. Cho'lponning romanchiligimiz taraqqiyotiga qo'shgan eng muhim yangiliklaridan biri ham shundadir" [3]. Bu ta'rifdan kelib chiqqan holda, "Kecha va kunduz" romanining badiiy-estetik ahamiyati nafaqat voqealar rivojida, balki inson ruhiyati, ichki kechinmalari, o'zgaruvchanligi va murakkabligining badiiy talqinida namoyon bo'lishida mujassamdir.

O'zbek romanlarida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hamda ma'naviy muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va yechimlari badiiy tasvir vositalari orqali yoritilgan. Mualliflar asarlari orqali jamiyatda mavjud muammolarga e'tibor qaratgan holda, ularni chuqur tahlil qilishga va o'quvchida muayyan ijtimoiy ong uyg'otishga intilishlar yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Ayniqsa, XX asr boshlarida, ya'ni 1917-yilgi Oktabr inqilobidan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan sovetlar dastlabki yillarda badiiy ijod jarayoniga bevosita aralashmagan. Bu davrda jadid adabiyoti vakillari, mavjud siyosiy bosimlarga qaramay, o'zlarining maqsad va g'oyalarini amalga oshirishda davom etganlar, garchi ular ko'plab qiyinchiliklarga duch kelgan bo'lsalar ham.

Biroq 1930-yillardan boshlab sovet hokimiyati o'z siyosiy pozitsiyasini mustahkamlagach, adabiyot va san'at sohasini to'liq nazorat ostiga olishga kirishdi. Murakkab va keskin siyosiy sharoitlarga qaramasdan, bu davrda ham badiiy jihatdan yuksak darajadagi asarlar yaratilganini inkor etib bo'lmaydi. Ayniqsa, roman janrida yozilgan ayrim asarlar o'zining san'atkorona uslubi, mavzuning chuqurligi va obrazlarning hayotiyliigi bilan ajralib turadi. Masalan, Oybekning "Qutlug' qon" hamda "Navoiy" romanlari, shuningdek, A.Qahhorning "Sarob" asari o'z davrining eng e'tiborli romanlari sifatida tarixda munosib o'rin egallagan.

1960–1980-yillar oralig'ida adabiyot sohasida qisman bo'lsa-da, ijodiy erkinlikka yo'l ochilgan edi. Bu davrda yozuvchilar mafkuraviy qattiq nazoratga qaramay, nisbatan mustaqil mavzularni yoritishga, jamiyat hayotini chuqur tahlil qilishga, shuningdek, tarixiy va falsafiy yo'nalishdagi asarlar yaratishga intildilar. Natijada mazkur yillarda o'zining badiiy saviyasi va mavzu yondashuvi bilan ajralib turuvchi ko'plab romanlar dunyo yuzini ko'rdi. Jumladan, Shuhrat qalamiga mansub "Oltin zanglamas" va "Shinelli yillar" romanlari, Asqad Muxtorning "Opa-singillar", "Tug'ilish", "Davr mening taqdirimda", "Chinor" hamda "Amu" kabi asarlari, shuningdek, Mirmuhsinning "Me'mor", "Degrez o'g'li", "Umid", "Temur Malik" romanlari ushbu davr adabiyotining yorqin namunalaridandir. Shu bilan birga, Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", "Ko'xna dunyo", "Diyonat" romanlari hamda Mirzakalon Ismoil tomonidan yaratilgan "Farg'ona tong otguncha", Shukur Xolmirzayevning "So'nggi bekat", "Qil ko'prik" va "Yo'lovchi" asarlari ham o'z o'rniga ega bo'lgan.

Sho'ro davri o'zbek adabiyotini tahlil qilishda uni shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin:

- birinchi davr (1917–1930-yillar) – bu bosqichda badiiy adabiyotda yangi mafkuraviy yondashuvlar shakllana boshlagan va jadidlar faoliyati davom etgan;
- ikkinchi davr (1930–1950-yillar) – bu davrda sovet mafkurasi adabiyot ustidan to'liq nazorat o'rnatgan, ijodiy erkinlik cheklangan va ko'plab ijodkorlar ta'qibga uchragan;
- uchinchi davr (1950–1980-yillar) – bu bosqichda esa nisbiy erkinlik paydo bo'lgan, natijada ijodkorlar ijtimoiy-tarixiy, falsafiy va ruhiy mavzularni kengroq yoritishga imkon topganlar.

Sho'ro davri romanchiligiga xos bo'lgan asosiy belgilar orasida, avvalo, romanlarning mavzu doirasi kengaygani kuzatiladi. Ayniqsa, XX asr insoniyat tarixida eng chuqur iz qoldirgan hodisalardan biri bo'lgan I va II jahon urushlari mavzusi romanlarda

keng yoritildi. Bu urushlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy oqibatlariga, balki har bir insonning shaxsiy hayotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ota-onasidan ayrilgan bolalar, bolasini yo'qotgan ota-onalar, boshpanasidan mahrum bo'lgan oilalar fojiasi badiiy adabiyotda chuqur drammatizm bilan aks ettirildi. Ushbu fojialar ijodkorlarni befarq qoldirmadi.

Yuqorida sanab o'tilgan boy adabiy meros jahon madaniyati va adabiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Ayniqsa, XX–XXI asrlarda o'zbek adabiyoti asarlarining turli tillarga, jumladan, nemis tiliga tarjima qilinishi jahon adabiy merosini boyitishga katta hissa qo'shdi. Tarjima jarayoni millatlararo madaniy aloqalarni mustahkamlash, o'zbek madaniyatini xalqaro miqyosda targ'ib qilish va o'zbek yozuvchilarining asarlarini keng o'quvchilar ommasiga tanishtirish uchun muhim omillardan biridir.

Tarjima nazariyasida milliy adabiyotlarning boshqa tillarga o'girilishi nafaqat lingvistik jarayon, balki madaniy, ijtimoiy va falsafiy jihatlarni ham qamrab oluvchi murakkab hodisa sifatida o'rganiladi. O'zbek romanlarining nemis tiliga tarjima qilinishi ushbu jarayonning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu tarjimalar orqali o'zbek tili, madaniyati va milliy mentalitetining jahon miqyosida tarqalishiga imkon yaratilgan.

Xalqning asosiy belgilaridan biri til ekanligi barchamizga ma'lum. Chunki muayyan bir xalqqa mansub bo'lgan hamma odamlar o'zlari uchun ona tili hisoblangan til – o'z tillarida so'zlashadilar.

Jahondagi turli-tuman tillarda yaratilgan badiiy adabiyot asarlari davr taqozosi bilan bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinadi. Tarjimasiz, faqat o'z ichki imkoniyatlari hisobigagina rivojlanadigan, uzoq va yaqin boshqa xalqlar bunyod etgan madaniy boyliklardan bahramand bo'lmagan “sof” millat, madaniyat, til mavjud emas. Bu borada taniqli tarjimashunos olim G.Salomov “Agar tarjima bo'lmaganida, milliy madaniyatlar va insoniyatning buyuk daholari bunyod qilgan o'lmas fan va san'at obidalari bir-birlari bilan abadiy uchrashmaydigan qoyalar va inson oyog'i yetmaydigan orollar shaklida yakkalanib qolgan bo'lar edi,” [4] degan fikrni bildirgan.

Shu kunga qadar tarjima yo'li bilan milliy madaniyatlar bir-birlarini boyitib kelganligi hech kimga sir emas. Jahon adabiyotining ko'plab asarlari o'zbek kitobxonlari tomonidan o'z ona tillarida sevib o'qib kelinmoqda.

XX asrda o'zbek adabiyotining rivojlanishi va nashr etilishi yangi bosqichga ko'tarilgan bo'lsa, aynan shu davrda asarlarning tarjima qilinishi ham jadallashgan. Xususan, XX asr o'rtalarida G'arb mamlakatlarida Markaziy Osiyo adabiyotiga bo'lgan qiziqish oshganligi sababli o'zbek romanlarining nemis tiliga tarjimalari paydo bo'ldi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani nemis tiliga 1968-yilda tarjimon Arno Specht tomonidan “Die Liebenden von Taschkent” [5] (Toshkentlik sevimli odamlar) nomi bilan tarjima qilingan. Keyinchalik ushbu asar 2020-yil Germaniyada o'zbekshunos olim Barno Oripova tomonidan nemis tiliga qayta tarjima qilindi [6]. Unga Germaniyalik tarjimashunos olim, professor Ingeborg Baldauf so'zboshi yozgan. Ushbu tarjimaning avvalgisidan farqli jihati shundaki, Arno Shpext tarjimasi asarning rus tilidagi variantidan o'girilgan bo'lsa, B.Oripova tarjimasi bevosita asliyatdan o'girilgan bo'lib, unda ko'plab to'ldirishlar bo'lgan. Barno Oripova tomonidan boyitilgan va to'ldirilgan holda nashr etilgan “O'tkan kunlar” romanining qayta tarjima nashri bir qator muhim yutuqlar bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Abdulla Qodiriyning shaxsiyati va “O'tkan kunlar” asari bilan yaqindan tanish bo'lmagan kitobxon ham aynan quyidagi mashhur ibora orqali asarning mohiyatini tasavvur qilishi mumkinligini ta'kidlash o'rinlidir: “Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar...”. Roman mazmunining markaziy g'oyasini ifodalovchi va bir vaqtning o'zida o'quvchining diqqatini ham darhol o'ziga jalb etadigan ushbu jumlar Barno

Oripovaning qayta to'ldirilgan tarjima nashrida o'z aksini topgan. Asarning 1968-yilda nemis tiliga qilingan tarjimasida tarjimon Arno Shpecht tomonidan aynan yuqorida tilga olingan qismlarning tarjima qilinmay, e'tibordan chetda qoldirilgani kuzatiladi. Biroq tarjimaning bilvosita – rus tili vositasida amalga oshirilganini inobatga olsak, ushbu kamchilik uchun bevosita tarjimonni ayblash unchalik o'rinli emas. Aslida, Arno Shpecht tayangan manba – 1958-yilda L. Bat va V. Smirnovalar tomonidan amalga oshirilgan ruscha tarjimada ham shu qismlar tarjima jarayonida tushirib qoldirilgan edi. Shunday ekan, 1968-yildagi nemischa nashrda bu izohli qismlarning yo'qligi, asosan, dastlabki ruscha tarjima nuqsonlari bilan izohlanadi.

Barno Oripova tomonidan amalga oshirilgan nemischa tarjimada roman nomi – *Die Liebenden von Taschkent* – shaklida saqlanib qolgan bo'lsa-da, muallif tomonidan roman boshida keltirilgan “Yozg'uchidan” bo'limi tarjimasida “O'tkan kunlar” atamasi “Vergangene Tage” shaklida ifoda etilgan. Bu esa tarjimada leksik moslashtirish bilan birga, asarning konseptual ramziyligini boshqa til kontekstiga uyg'unlashtirishga intilish sifatida qaralishi mumkin.

Alohida e'tirof etilishi lozim bo'lgan jihatlardan biri shuki, romanning 1925-yilda ilk bor to'liq holda nashr etilgan tahririda muallif Abdulla Qodiriyning shaxsan o'zi tomonidan yozilgan “Uzr” nomli izohnoma mavjud bo'lgan. Biroq keyinchalik amalga oshirilgan nashrlarda ushbu izoh aks etmagan, ya'ni ular mazkur muhim matndan mahrum holda chop etilgan. Biroq Barno Oripova tomonidan amalga oshirilgan tarjimada ushbu izohnoma alohida e'tibor bilan qamrab olinib, u “Entschuldigung” [7] sarlavhasi ostida nemis tiliga tarjima qilingan. Bu esa tarjimonning matnning tarixiy-konseptual qatlamlarini saqlashga va mualliflik niyatini xorijiy o'quvchiga to'laqonli yetkazishga bo'lgan harakatining yaqqol dalilidir.

Yuqoridagilardan tashqari, 1990-yilda G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti tomonidan nashr qilingan yozuvchi Uchqun Nazarovning “Chayon yili” romani [8] 2018-yil tarjimon Ingeborg Baldauf tomonidan nemis tiliga tarjima qilinib, Berlinda nashr etildi [9].

“Chayon yili” romanining nemis tiliga tarjimasi va uning madaniy-adabiy ahamiyati haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ushbu roman o'zbek jamiyatining turli qatlamlari, ijtimoiy-madaniy urf-odatlar hamda shaxslararo munosabatlar tizimini o'ziga xos badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. Asarda nafaqat jamiyat ichidagi sotsial ziddiyatlar, balki inson ruhiyati, ma'naviy qadriyatlar va zamonaviylikka intilish jarayonlari ham keng qamrovda aks ettirilgan. Ushbu murakkab ijtimoiy matnni tarjima jarayonida to'laqonli ifoda etish esa tarjimondan yuqori darajada badiiy idrok va madaniy sezgirlikni talab etadi.

Tarjimon Ingeborg Baldauf romanning nemis tiliga qilingan tarjimasida asarga *Das Jahr des Skorpions* deb nom berib, uning dramatik mazmunini va ruhiy-falsafiy qatlamlarini asliyatga sodiq holda yetkazishga alohida e'tibor qaratgan. Baldauf tarjimasining muhim xususiyati shundaki, u faqat matnning tashqi mazmunini emas, balki uning ichki dramtizmini, qahramonlar o'rtasidagi murakkab psixologik ziddiyatlarni ham nozik badiiy vositalar orqali saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. Shunday yondashuv natijasida roman nemis tilida o'qiydigan auditoriya uchun ham o'zbek adabiy an'analarining nozik jihatlari yetkazishda samarali vosita bo'lib xizmat qilgan.

Shu tariqa, *Das Jahr des Skorpions* tarjimasi o'zbek zamonaviy adabiyotining xalqaro ilmiy va madaniy muomaladagi o'rni va ta'sirini oshirishda muhim rol o'ynagan, hamda milliy badiiy tafakkurning dunyo adabiy olamiga integratsiyalashuvida o'ziga xos hissa qo'shgan, deb e'tirof etish mumkin.

Tarjima jarayonida madaniy alomatlarining saqlanishi haqida ham alohida e'tiborga molik jihatlarni bir qator keltirib o'tish mumkin. Jumladan, tarjimashunoslik nazariyalarida madaniy alomatlarining boshqa tilga ko'chirilishi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, "Chayon yili" romanining nemis tiliga tarjima qilinishi jarayonida tarjimon Ingeborg Baldauf asarda mavjud bo'lgan o'zbek xalqiga xos milliy urf-odatlar, ijtimoiy tasavvurlar va madaniy konnotatsiyalarni o'quvchiga yetkazish mas'uliyatini chuqur anglagan holda harakat qilgan. U turli kontekstual izohlar, madaniy sharhlar va muqobil tarjima strategiyalaridan foydalanib, asl matnning ruhiy-falsafiy va etnografik qatlamlarini nemis tilidagi o'quvchi uchun tushunarli va idrok etiladigan shaklda saqlab qolishga intilgan. Masalan, romandagi "o'zbek choyxonasi" tushunchasi nemis o'quvchisi uchun notanish madaniy realiya sifatida maxsus izoh bilan boyitilgan. Tarjimada bu element shunchaki *Teehaus* (choy uyi) deb tarjima qilinmagan, balki u o'zbek choyxonalarining ijtimoiy va madaniy funksiyasini tushuntiruvchi qisqa kontekstual izoh bilan berilgan: "...eine traditionelle usbekische Teestube, ein Treffpunkt für Männer zur Diskussion über das tägliche Leben..." [10]. Bu esa o'z navbatida nafaqat til, balki madaniyatlararo kommunikatsiyani ham ta'minlovchi yondashuv sifatida e'tiborga loyiq.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek romanlarining nemis tiliga tarjimasi bo'yicha tadqiqotlar hali yetarli darajada olib borilmagan. Bu borada tarjimonlar korpusini yaratish va tarjimonlar kompetensiyasini chuqur tahlil qilish, tarjima qilingan asarlarni lingvomadaniy tahlil asosida baholash, nemis auditoriyasi uchun mo'ljallangan adaptatsiyalangan tarjima uslublarini ishlab chiqish, o'zbek romanlarini tarjima qilishda realiya, metafora va uslubiy birliklar uchun bir nechta ekvivalent variantlar taklif qilish kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borish bugungi kun o'zbek tarjimashunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Solihov M. "Mehrobdan chayon" mavzui, sinfiy tusi va tuzulishi jihatidan tekshirilmishdir. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2008 yil, 16-17-sonlar.
2. Rajabova G. O'zbek romanchiligining yuzaga kelishi va shakllanishi, ilmiy maqola, XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta'lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar jurnali, 2024, -b. 163
3. Quronov D. "Cho'lpon nasri poetikasi", Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 2004 yil, -b. 157.
4. Salomov G'. Tarjimon mahorati. "Fan" nashriyoti. Toshkent, 1979, 3-bet.
5. Abdulla Kadiri. Die Liebenden von Taschkent. Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. –C.358.
6. Abdulla Kadiri. Die Liebenden von Taschkent. Berlin: Dag'yeli Verlag, 2020. – S 316.
7. Abdulla Kadiri. Die Liebenden von Taschkent. Berlin: Dag'yeli Verlag, 2020, -. 3.
8. Uchqun Nazarov. "Chayon yili", G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1990.
9. Uchqun Nazarov (Ubersetzerin Ingeborg Baldauf). Das Jahr des Skorpions, der deutschsprachige Ausgabe: J&D Dag'yeli Verlag GmbH, Berlin, 2018.
10. Das Jahr des Skorpions tarjimasidagi "choyxona" ifodasi tarjimon tomonidan izohli tarzda keltirilgan, qarang: Uchqun Nazarov (Ubersetzerin Ingeborg Baldauf). Das Jahr des Skorpions, der deutschsprachige Ausgabe: J&D Dag'yeli Verlag GmbH, Berlin, 2018, 74-bet.